

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/06.04.2024.Tar.20.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH
QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**

GENJEMURATOV YAKIPBEK BAXTIYAROVICH

**MUSTAQILLIK YILLARIDA QORAQALPOG‘ISTON
RESPUBLIKASIDAGI SIYOSIY, IJTIMOY-IQTISODIY, MADANIY
O‘ZGARISHLAR VA UNING XORIJ TADQIQOTLARIDA YORITILISHI**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus - 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of the abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation

Genjemuratov Yakipbek Baxtiyarovich

Mustaqillik yillarida Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy o‘zgarishlar va uning xorij tadqiqotlarida yoritilishi..... 3

Генжемуратов Якыпбек Бахтыярович

Политические, социально-экономические, культурные изменения в Республике Каракалпакстан за годы независимости и его освещение в зарубежных исследованиях 25

Genjemuratov Yaqipbek Bahtiarovich

Political, socio-economic, cultural changes in the Republic of Karakalpakstan during the years of independence and its coverage in foreign studies 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 54

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/06.04.2024.Tar.20.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH
QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**

GENJEMURATOV YAKIPBEK BAXTIYAROVICH

**MUSTAQILLIK YILLARIDA QORAQALPOG‘ISTON
RESPUBLIKASIDAGI SIYOSIY, IJTIMOIIY-IQTISODIY, MADANIY
O‘ZGARISHLAR VA UNING XORIJ TADQIQOTLARIDA YORITILISHI**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus - 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.PhD/Tar1181 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (<http://karsu.uz>) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Koshanov Baxitbay Abdikerimovich
tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy oponentlar:

Karlibaev Makset Abdibaevich
tarix fanlari doktori (DSc), katta ilmiy
xodim

Bekimbetov Baxadir Mirzabaevich
tarix fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/06.04.2024.Tar.20.05 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil "21" VI soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 230100, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1 uy, Tel.: (99361) 223-60-49; Faks: (361) 223-60-49; e-mail: karsu.info@edu.uz)

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (180 -raqam bilan ro'yxatga olingan.) Manzil: 230100, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1 uy, Tel.: (99361) 223-60-49; Faks: (361) 223-60-49.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil "07" VI kuni tarqatildi.
(2024 yil "07" VI dagi TC -raqamli reestr bayonnomasi)



R.B.Ballieva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, tarix fanlari doktori, professor

H.M.Otegenov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, tarix fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

A.M.Djumashev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisining
o'rinbosari, tarix fanlari doktori (DSc),
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Zamonaviy dunyoda y berayotgan ilmiy-madaniy global integratsiya jarayonlari dunyo xalqlari o'rtasida o'zaro yaqinlashuvga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu borada xorijiy ilmiy maktablar, jahon hamjamiyati va xalqaro tashkilotlar tomonidan xalqlarning tarixi, madaniyati, ularning ko'p asrlik an'anaviy va milliy qadriyatlarini o'rganish hamda ulug'lash asosiy rol o'ynaydi. Shuningdek, alohida mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy jihatdan taraqqiy etishi xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilishi barobarida ular bilan teng huquqli aloqalarni yo'lga qo'yilayotganligi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon miqiyosida Vatan tarixshunosligining dolzarb masalalarini yangilab borish, mamlakatning eng yangi tarixini xorijiy mualliflar nuqtai nazaridan o'rganilishini tadqiq va tahlil etish, tadqiqotlarning manbashunoslik bazasini kengaytirish va yangilashga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shuningdek, tarixiy-madaniy merosni tiklash, asrab-avaylash, uning ijtimoiy-ma'naviy soha rivojidadagi ahamiyatini yanada oshirish, xalqlarning madaniy merosi bilan kengroq tanishtirish, shu orqali yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan ishlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda yangilanayotgan O'zbekistonning barcha jabhalarida amalga oshirilayotgan samarali islohotlar mamlakat madaniy hayoti rivojiga zamin yaratmoqda. Maqsadli chora-tadbirlar Qoraqalpog'istonda madaniyatni rivojlantirish barobarida yangi fundamental tadqiqotlarni ham talab etadi. Boisi Fan taraqqiyotida fundamental tadqiqotlar muhim o'rin tutadi. Ushbu izlanishlar tufayli yangi bilimlar o'zlashtiriladi va nazariyalar ishlab chiqiladi, kelajakdagi amaliy tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalar uchun mustahkam poydevor yaratiladi¹. Shu munosabat bilan, umuman O'zbekiston, xususan, Qoraqalpog'istonning yangi tarixini o'rganish, qoraqalpoq madaniyatining xalqaro ahamiyatini chuqur anglashda zamonaviy xorijiy materiallarni tahlil etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bularning barchasi birgalikda xorijlik tadqiqotchilar materiallarida Qoraqalpog'istonning eng yangi tarixini o'rganilishiga oid maxsus dissertatsiya tadqiqotining obyekt sifatida ko'rib chiqishga asos bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2017-yil 30-iyundagi PQ-3105-son O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzurida "O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to'g'risida", 2020-yil 11-noyabrdagi PQ-4889-son "2020-2023-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari va sohaga oid boshqa me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ Мирзиёев Ш.М. «Илм-фан ютуқлари таракқиётнинг муҳим омили» // Халқ сўзи. 31-декабрь 2016-йил. - №259 (6694).

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublikasida fan va texnologiyalar rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishida innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi². Mustaqil O‘zbekistonni rivojlanishining dolzarb masalalari bo‘yicha xorijiy tadqiqotchilarining asarlarini o‘rganish va umumlashtirishga urinish ilk bor Fanlar akademiyasi Tarix instituti tomonidan amalga oshirilgan³. Shu boisdan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti olimlarining eng yangi tarixiga oid nashrlar uslubiy va nazariy jihatdan katta ahamiyatga ega⁴. Qoraqalpog‘istonlik olimlar ham ushbu masalalar bo‘yicha o‘z qarashlarini ilgari surganlar⁵. Dissertant tadqiqot mavzusi bo‘yicha hammualliflikda monografiya e‘lon qilgan⁶.

Qoraqalpog‘istonning eng yangi tarixi bir qator xorijiy ilmiy maktablar va mualliflarning o‘rganish obyektiga aylangan. Ammo shuni ta’kidlash joizki, ushbu tadqiqotchilar Qoraqalpog‘istonni butun Markaziy Osiyo mintaqasining rivojlanishi fonida ko‘rib chiqqanlar. Jumladan: M.B.Sujikov, Dj.Shoberleyn (J.Schoeberlein), Ye.V.Savkovich, Y.Bregel (Y.Bregel), DeUiz (DeWeese), S.Cheshko, R.G.Syuni (R.G.Suny), G.Stouks (G.Stokes), D.Richardson (D.Richardson), S.Richardson (S.Richardson), S.Yilmaz (S.Yilmaz), T.Bodio

² Dissertatsiyaning birinchi bobida ushbu masala bo‘yicha manbalar va adabiyotlarning batafsil tahlili berilgan.

³ Вопросы новейшей истории Узбекистана в современной англо-американской научной литературе. Отв. ред.: д.и.н., проф. Д.А.Алимова. – Ташкент: Адабиёт учкунлари, 2015.

⁴ Рахимов М.А., Турсунова Р.Ю. Новейшая история Узбекистана: Учебное пособие. – Ташкент: УМЭД, 2014. – 295 с.; Рахимов М., Рахматуллаев Ш., Турсунова Р., Назаров Р. Очерки новейшей истории Узбекистана. – Ташкент: Адабиёт учкунлари, 2015. – 352 с. 2-изд. – Ташкент: Адабиёт учкунлари, 2016. – 376 с.

⁵ Кошанов Б. Историческая наука Каракалпакстана на современном этапе: обретения и проблемы // Вестник Каракалпакского государственного университета. – Нукус, 2008. №1; О‘sha muallif. Актуальные проблемы историографии Каракалпакстана на современном этапе // Марказий Осиё манбашунослиги ва тарихшунослиги: Республика конференция материаллари. 17 май 2010 г. – Тошкент, 2010; О‘sha muallif. Историческая наука Каракалпакстана на современном этапе: обретения и проблемы // Историческая наука в контексте интеллектуального развития Центральной Азии (очерки историографии и источниковедения). – Ташкент: Yangi nashr, 2014; О‘sha muallif. Новейшая история Каракалпакстана: историки, исследования, проблемы // Актуальные вопросы строительства независимой государственности и демократического общества в исследованиях по новейшей истории Узбекистана: Республиканская научно-практическая конференция. 5 декабря 2014 г. – Ташкент: АГУ и КМЦ, 2014; О‘sha muallif. Современная историография новейшей истории Республики Каракалпакстан // Тарихий манбашунослик, тарихнавислик, тарих тадқиқоти методлари ва методологиясининг долзарб масалалари: Республика УП илмий-назарий конференцияси. – Тошкент, 2015; Кошанов Б., Аметов Т. Очерки новейшей историографии Республики Каракалпакстан. – Нукус: Каракалпакстан, 2015; Джумашев А. Новейшая история Каракалпакстана: проблемы историографии // Каракалпакстанның ең жаңа тарийхының әхмийетли машқалалары: Материалы научно-теоретической конференции. – Нукус, 2018. – С. 12-13; Джумашев А., Нуржанов С. Современные тенденции в мировой историографии и перспективы историописания в Каракалпакстане // История и археология Приаралья. 2019. – №1. – С. 104-109; Джумашев А. Историография новейшей истории Каракалпакстана: проблемы и решения // Каракалпакстанның ең жаңа тарийхының әхмийетли машқалалары: Материалы Республиканской научно-теоретической конференции. – Нукус, 2021. – С. 4-8.

⁶ Кошанов Б., Аметов Т., Генжемуратов Я., Кошанова С. Очерки зарубежной историографии новейшей истории Республики Каракалпакстан. – Нукус: Каракалпакстан, 2016.

(T.Bodio), S.Zapasnik (S.Zapasnik), S.Redo (S.Redo), B.Boyarchik (B.Bojarczyk), A.Zietek (A.Zietek)⁷ va boshqalar.

Umuman olganda, xorijiy mualliflar asarlarining aksariyat ma'lumotlari o'z mazmuniga ko'ra noyob hisoblanadi. Shu boisdan xorijiy tadqiqotchilarning Markaziy Osiyo va shuning bilan birga Qoraqalpog'istonning eng yangi tarixiga oid qarashlarini tadqiq qilish dolzarb ahamiyatga ega.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti ilmiy-tadqiqot rejalaridan o'rin olgan "Qoraqalpog'iston tarixining dolzarb muammolari" ilmiy dasturi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi mustaqillik yillarida Qoraqalpog'iston Respublikasidagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy o'zgarishlar va uning xorij tadqiqotlarida yoritilishi tarixini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Qoraqalpog'istonning yangi tarixini o'rganishda xorijiy materiallar va nazariyalarni tahlil qilish;

xorijiy ilmiy maktablar va muassasalar kontekstida Qoraqalpog'istonning yangi tarixi rivojlanishining asosiy bosqichlarini aniqlash;

Qoraqalpog'iston Respublikasi suverenitetini qo'lga kiritishning tarixiy shartlarini xorijiy tadqiqotlar asosida o'rganish va ularning natijalarini yoritish;

Qoraqalpog'iston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati va milliy iqtisodiyotning istiqbollari Orol inqirozi fonida xorijiy mualliflar nigohida yoritish;

⁷Сужиков Б.М. Методологические подходы к изучению истории Центральной Азии XX-го столетия в евро-американской историографии // Очерки по историографии и методологии истории Казахстана. – Алматы, 2007. – С. 197-238; Schoeberlein J. The Growth and Development of Central Asian Studies in the West. Доклад, представленный в IFEAC (Французский Институт Исследования Центральной Азии). 11 июня. – Ташкент, 2007; Савкович Е.В. Центрально-азиатские исследования в КНР: историография в первой половине 1990-х гг. // Вестник Томского государственного университета. - Вып. №354. – Томск, 2012. – С. 109-112; Bregel Yu. Notes on the study of Central Asia // Papers on Inner Asia. – Bloomington: Indiana University Research Institute for Inner Asia Studies. 1996. – №28. – P. 61; De Weese D. Islam and the legacy of Sovietology: a review essay on Yacov Roi's Islam in the Soviet Union // Journal of Islamic Studies. – Oxford: Centre for Islamic Studies, 2002. – Vol. 13.–3. – P. 298; Чешко С.В. Западные советологи о национальных отношениях и этнокультурных процессах в Средней Азии (1970-1980-е годы) // Советская этнография. – М., 1987. – №3. – С. 142-143; Зарубежная литература о национальных отношениях в СССР. – М.: ИНИОН, 1991; Этносоциальные проблемы государств Центральной Азии (обзор зарубежной литературы). – М.: ИНИОН, 1995; Россия и ее соседи: взаимосвязь политических и этнических конфликтов. – М.: ИНИОН, 1996; Россия и ее соседи: проблемы интеграции и федерализма в странах СНГ. – М.: ИНИОН, 1998; Россия и ее соседи: соотношение национальных интересов внутри СНГ. – М.: ИНИОН, 1999; Нация и национализм. – М.: ИНИОН, 1999; Suny R.G. Rethinking Soviet studies: bringing the non-Russians back in // Beyond Soviet studies / Ed. by D.Orlovsky. – Washington: Woodrow Wilson center press, 1995. – P. 107-111; Stokes G. Framing post-Soviet nationalities studies // Beyond Soviet studies. – P. 155; Richardson David, Richardson Sue. Qaraqalpaqs of the Aral Delta. Prestel Verlag. 2012; Salih Yilmaz. Karakalpak Türkleri Ve Karakalpakistan Tarihi. – Ankara: Türk Tarih Kurumu Yayinlari, 2008. – 534 p.; Bodio T. (ed.). Uzbekistan. Historia–spolecznstwo–politika. – Warszawa: IPS UW, 2001. – 536 s.; Zapasnik S. "Walczqcy islam" w Azji Centralnej. Problem spoltecznej genezy zjawiska. – Wroclaw, 2006. – 215 s.; Bodio T., Jakubowski W., Zalenski P. (eds.). Azja Centralna – problemy historii I wspolczesnosti. – Pultusk: Pismo Edukacyjne, 2007. – 376 s.; Redo S. Zwalczenie przestepczosci zorganizowanej w Azji Centralnej. – Warszawa: IPS UW, 2007. – 314 s.; Bodio T., Moldawa T. Konstytucje panstw Azji Centralnej. Tradycje i wspolczesnosc. – Warszawa: IPS UW, 2007. – 607 s.; Bodio T., Moldawa T. Constitutional Reforms in Central Asian States. – Warszawa: IPS UW, 2008. – 350 s.; Bojarczyk B., Zietek A. (eds.). Region Azji Centralnej jako obszar wplywow miedzynarodowych. – Lublin: UMCS, 2008. – 286 s.; Bodio T., Zalenski P. Elites of Power in Central Asia. – Warszawa: IPS UW, 2008.

Qoraqalpog‘iston madaniyati va san‘atiga xalqaro qarashlarni ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida chet elda Qoraqalpog‘istonning eng yangi tarixiga oid xorijiy tadqiqotchilarining chop etilgan manbalari tahlili belgilangan.

Tadqiqotning predmetini o‘rganilayotgan davrda Qoraqalpog‘istonda ro‘y bergan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlar tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda an’anaviy manbashunoslik va tarixshunoslik metodlari, sivilizatsion yondashuv asosida tarixiy-xronologik, tarixiy-madaniy vorisiylik va izchillik, xolislik, qiyosiy-tarixiy tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Markaziy Osiyo mintaqasini o‘rganadigan xorijiy ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatida Sovet Ittifoqi va g‘arb o‘rtasidagi antogonistik g‘oyalar ustun bo‘lib, ularda asosan sobiq sovet hokimiyatining totalitar siyosatining fojialari, oqibatlari, xususan, yopilayotgan o‘nlab sanoat korxonalari, ishi va tirikchiligini yo‘qotgan minglab odamlar, vayron bo‘lgan shaharlar, odamlar tashlab ketganligi, qum bilan qoplanganligi bilan bog‘liq ma‘lumotlarga urg‘u qaratilgani ochib berilgan;

1990 yilgacha Markaziy Osiyo mintaqasini o‘rganuvchi ko‘plab xorijiy tadqiqot markazlari va muassasalar mavjud turli xil manbalarni o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lmaganligi sharoitida Qoraqalpog‘iston hududining asosiy geosiyosiy jihatlariga oid cheklangan ma‘lumotlar berilgan bo‘lsa-da, xorijiy mualliflarning fikr va qarashlari bir yoqlama yondashuvlardan, ya‘ni stereotiplardan farqli o‘laroq, plyuralistik nuqtai-nazarning aks etishi mintaqaning keyingi davrlarda turli rakurslardan o‘rganilishiga turtki bo‘lganligi asoslangan;

xorijlik tadqiqotchilar bir vaqtlar gullab-yashnagan Qoraqalpog‘iston hududi iqtisodiy va sanoat aloqalari, qishloq xo‘jaligi, eng muhimi, xalqlar taqdirini buzgan gumanitar falokatga duch kelganini tadqiq etish barobarida o‘lkadagi salbiy iqlim o‘zgarishi va qurg‘oqchilik natijasida migratsiya oqimi kengayib borishi kabi ijtimoiy mavzularga ham e‘tibor qaratilishiga asos bo‘lganligi yoritilgan;

mustaqillikdan keyingi davrda xorijiy tadqiqotchilarning totalitar tizim sharoitida Qoraqalpog‘istondagi ishlab chiqarishni rivojlanishining mustamlakachilik xarakteri, boshqaruvning ma‘muriy-buyruqbozlik usullarining illatlari namoyon bo‘lishi va ishlab chiqarish vositalariga egalik qilishning “umummilliy” xususiyatlarini tahlil qilgan holda chiqargan xulosalari Markazning mintaqadagi iqtisodiy siyosatining imperiya yo‘nalishini ochib berishga, shuningdek, sovet boshqaruv tizimining “og‘riqli nuqtalarini” aniqlashga imkon berganligi ko‘rsatib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

mustaqillik yillarida xorij tadqiqotlarida Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy o‘zgarishlarning yoritilishi jarayonini tahlil qilish asosida Qoraqalpog‘istonning yangi tarixida muhim o‘rin tutgan xorijiy tadqiqotchilarning materiallari umumlashtirilgan;

Qoraqalpog‘istonning yangi tarixi tarkibiy qismi sifatida o‘lkadagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy o‘zgarishlarni tadqiq qilish ishlarida foydalanish mumkin bo‘lgan yangicha nazariy yondashuvlar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi tadqiqotda tarixiy vatan tarixshunosligida tan olingan nazariy yondashuvlar va metodlarning qo'llanilganligi, xorijiy tarixiy adabiyotlar keng qo'llanilganligi, qiyosiy tahlil, tarixiylik va xolislik tamoyillarining qo'llanilishi, olingan natijalarni vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, dissertatsiyaning Qoraqalpog'iston Respublikasidagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy o'zgarishlar va uning xorij tadqiqotlarida yoritilishi yuzasidan nazariy va umumlashtiruvchi xulosalari Qoraqalpog'istonning yangi tarixini boyitish, yangi ilmiy yondashuvlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, tadqiqotda keltirilgan fakt va ma'lumotlar Qoraqalpog'istonning yangi tarixini o'rganuvchi tarixchi, siyosatshunos va sotsiologlarning tadqiqotlarini boyitishga, oliy o'quv yurtlarida o'rganilayotgan mutaxassislik bo'yicha fanlar mazmunini sezilarli darajada kengaytirishga, jamiyatning ma'naviy-madaniy taraqqiyotini, madaniy qadriyatlarni, ma'naviy merosni, davlatchilik tarixini o'rganish va asrab-avaylashga qaratilgan manzilli davlat dasturini amalga oshirishga ham xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Xorijiy tadqiqotchilar materiallarida Qoraqalpog'istonning yangi tarixini o'rganish jarayonida ishlab chiqilgan ilmiy xulosa va takliflar quyidagicha amalga oshirildi:

Markaziy Osiyo mintaqasini o'rganadigan xorijiy ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatida Sovet Ittifoqi va g'arb o'rtasidagi antogonistik g'oyalar ustun bo'lib, ularda asosan sobiq sovet hokimiyatining totalitar siyosatining fojialari, oqibatlarini, xususan, yopilayotgan o'nlab sanoat korxonalarini, ishi va tirikchiligini yo'qotgan minglab odamlar, vayron bo'lgan shaharlar, odamlar tashlab ketganligi, qum bilan qoplanganligi bilan bog'liq ma'lumotlarga urg'u qaratilgani bo'yicha natijalardan O'zR FA QQB Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan FA-IZ-GOO2 "Qoraqalpaqstan tariyxı (1991-2015-jıllar)" loyihasini yozish uchun foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining 2023-yil 1-iyundagi 234/1-son ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qo'llanilishi sovet davridagi qoraqalpoq xalqining ijtimoiy-madaniy tarixiga oid qarashlarni takomillashtirishga xizmat qilgan;

1990 yilgacha Markaziy Osiyo mintaqasini o'rganuvchi ko'plab xorijiy tadqiqot markazlari va muassasalar mavjud turli xil manbalarni o'rganish imkoniyatiga ega bo'lmaganligi sharoitida Qoraqalpog'iston hududining asosiy geosiyosiy jihatlariga oid cheklangan ma'lumotlar berilgan bo'lsa-da, xorijiy mualliflarning fikr va qarashlari bir yoqlama yondashuvlardan, ya'ni stereotiplardan farqli o'laroq, plyuralistik nuqtai-nazarning aks etishi mintaqaning keyingi davrlarda turli rakurslardan o'rganilishiga turtki bo'lganligi borasidagi natijalardan O'zR FA QQB Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan FA-IZ-GOO2 "Qoraqalpaqstan tariyxı (1991-2015-jıllar)" loyihasini yozish uchun foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining 2023 yil 1-iyundagi 234/1-son ma'lumotnomasi).

Ilmiy natijalarning qo‘llanilishi qoraqalpoq xalqining ijtimoiy-madaniy tarixiga tegishli bo‘lgan masalalarni xorijiy tadqiqotlar nuqtai-nazaridan yoritib berishga xizmat qilgan;

xorijlik tadqiqotchilar bir vaqtlar gullab-yashnagan Qoraqalpog‘iston hududi iqtisodiy va sanoat aloqalari, qishloq xo‘jaligi, eng muhimi, xalqlar taqdirini buzgan gumanitar falokatga duch kelganini tadqiq etish barobarida o‘lkadagi salbiy iqlim o‘zgarishi va qurg‘oqchilik natijasida migratsiya oqimi kengayib borishi kabi ijtimoiy mavzularga ham e‘tibor qaratilishiga asos bo‘lganligi bo‘yicha natijalardan Qoraqalpog‘iston Respublikasi tarixi va madaniyati davlat muzeyidagi eksponatlarni boyitishda foydalanilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi tarixi va madaniyati davlat muzeyining 2023-yil 31-maydagi 200-son ma‘lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qo‘llanilishi muzeyga tashrif buyuruvchilarga sovet davridagi siyosat tufayli yuz bergan iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy hodisalar mohiyatini ochib berishga xizmat qilgan;

mustaqillikdan keyingi davrda xorijiy tadqiqotchilarning totalitar tizim sharoitida Qoraqalpog‘istondagi ishlab chiqarishni rivojlanishining mustamlakachilik xarakteri, boshqaruvning ma‘muriy-buyruqbozlik usullarining illatlari namoyon bo‘lishi va ishlab chiqarish vositalariga egalik qilishning “umummilliy” xususiyatlarini tahlil qilgan holda chiqargan xulosalari Markazning mintaqadagi iqtisodiy siyosatining imperiya yo‘nalishini ochib berishga, shuningdek, sovet boshqaruv tizimining “og‘riqli nuqtalarini” aniqlashga imkon berganligiga oid ilmiy natijalardan “Qoraqalpog‘iston” Radiokanalidagi “Fan va ta‘lim” axborot-ta‘lim dasturidagi eshittirishi ssenariylarini tuzishda qo‘llanilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Teleradiokompaniyasining 2023-yil 31-maydagi 05-22/286-son ma‘lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qo‘llanilishi teletomoshabinlarda qoraqalpoq xalqi tarixiga yangicha qarashlar shakllanishiga imkon bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy anjumanda, shu jumladan, 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy anjumanlarda aprobatsiyadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, 1 monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, jumladan, 7 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Tadqiqot kirish, har biri ikkita paragraflardan iborat uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 139 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi asoslanib, tadqiqotning maqsad va vazifalari, o‘rganish obyekti va predmeti aniqlangan. Tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilib, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon

qilingan. Olingan natijalarning ishonchligi asoslangan holda ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprotatsiyasi, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Qoraqalpog‘iston eng yangi tarixining xorijiy tarixshunosligi”** nomli birinchi bobida o‘rganilayotgan davrning xorijiy tarixshunosligi tahlil qilingan va muammoni tadqiq qilishning metodologik yondashuvlari aniqlangan.

Birinchi paragrafda Markaziy Osiyo, O‘zbekiston va Qoraqalpog‘istonning yangi tarixiga oid tarixiy adabiyotlari xorij ilmiy maktablari kontekstida o‘rganilgan.

Hozirgi vaqtda Markaziy Osiyo bo'yicha quyidagi markazlarda samarali tadqiqotlar olib borilmoqda: Kanada slavyanlar assotsiatsiyasi (Canadian Association of Slavists), Britaniya slavyanlar universiteti assotsiatsiyasi (British University Association of Slavists) va Sovet va Sharqiy Yevropa tadqiqotlari milliy assotsiatsiyasi (National Association for Soviet and East European Studies), 1989 yilda Birlashgan slavyanlik va Sharqiy Yevropa tadqiqotlari assotsiatsiyasi (British Association for Slavonic and East European Studies). Ta'kidlash lozimki, AQShning o'zida Rossiya va slavyan tadqiqotlarining 30 dan ortiq ilmiy markazlari, Avstraliya va Kanadada - 2 ta markaz, Buyuk Britaniyada - 9 ta markaz mavjud⁸.

Amerikalik tadqiqotchi Djon Shoberleyn (J.Schoeberlein) fikricha, O'rta Osiyoning g'arbiy tadqiqotchilari soni 1991-yildagi 400 dan 2007-yilda 3000 gacha o'sib borgan⁹.

Bir qator tadqiqotchilar uning turli ma'nolarini talqin qilganlar va tadqiqot mavzusini tadqiq qilishda katta hissa qo'shganlar. Ularning aksariyati bu masalani mutaxassis bo'lmasdan turib amalga oshirdilar. 1996-yilda Yu.Ye.Bregelni (Yu.Bregel) fikrlarini A.Bennigsen (A.Bennigsen), E.Uimbush (S.E.Wimbush), M.B.Ollkot (M.B.Olcott), E.Ollvort (E.Allworth) va boshqa olimlar tanqid qilishdi. Tanqidning sababi shundaki, yuqoridagi mualliflar, Markaziy Osiyo bo'yicha mutaxassis bo'lmasdan turib ushbu mintaqa xalqlari tarixini yozishga harakat qilishgan¹⁰. D.DeUiza (D.DeWeese) fikriga ko'ra, ayrim g'arb tadqiqotchilari mintaqani o'rganishga “professional bo'lmagan” yondashuv tendensiyasiga ega edilar¹¹.

Devid va Syu Richardsonlarning birinchi maqolalari 2005-yilda ingliz jurnallarida nashr qilingan. Qoraqalpog‘iston haqidagi monografiya nashr etilgandan so'ng, Richardson www.qaraqalpaq.com veb-saytini yaratdi. Biroq

⁸ Сужиков Б.М. Методологические подходы к изучению истории Центральной Азии XX-го столетия в евро-американской историографии // Очерки по историографии и методологии истории Казахстана. – Алматы, 2007. – С. 197-238.

⁹ Schoeberlein J. The Growth and Development of Central Asian Studies in the West. Доклад, представленный в IFEAC (Французский Институт Исследования Центральной Азии). – Ташкент, 11 июня 2007.

¹⁰ Bregel Yu. Notes on the study of Central Asia // Papers on Inner Asia. – Bloomington: Indiana University Research Institute for Inner Asia Studies, 1996. – №28. – P. 61.

¹¹ DeWeese D. Islam and the legacy of Sovietology: a review essay on Yaacov Roi's Islam in the Soviet Union // Journal of Islamic Studies. Vol. 13.–3. – Oxford: Centre for Islamic Studies, 2002. – P. 298.

Qoraqalpog‘istonning yangi tarixini o‘rganishdagi eng katta hissi bu mualliflar tomonidan chop etilgan “Qaraqalpaqs of the Aral Delta” (“Orol dengizi deltasining qoraqalpoqlari”) nomli monografiyasi bo‘ldi¹².

Qoraqalpog‘istonga shaxsan tashrif buyurgan Richardsonlardan tashqari, turk tadqiqotchisi Solih Yilmazni (Salih Yılmaz) ham tilga olish maqsadga muvofiq. U bu hududda ilmiy amaliyot o‘tgan, shuningdek, materiallar to‘plagan va Qoraqalpog‘istonning uzoq va yaqin o‘tmishida sodir bo‘lgan voqealarni tahlil qilgan. Natijada u Qoraqalpog‘istonning yangi tarixi bo‘yicha doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi va ilmiy monografiyani nashr etdi¹³.

Qoraqalpog‘istonda sanoat va xalq xo‘jaligining boshqa tarmoqlari bilan bog‘liq muammolar ingliz olimi G.Glison (G.Gleason) tomonidan yoritilgan. Ko‘rinib turibdiki, uning respublika iqtisodiyotining mavjud gipertrofiyasi Moskva hech qachon mahalliy aholining milliy-tarixiy va iqtisodiy ehtiyojlarini hisobga olmaganligining natijasidir, degan gipotezasi juda asoslidir¹⁴.

P.Kraumer (P.Craumer) “O‘zbekistonda qishloq va qishloq xo‘jaligini rivojlantirish” (“Rural and Agricultural Development in Uzbekistan”) nomli asarida O‘zbekiston va Qoraqalpog‘istondagi tub iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlarni batafsil yoritishga harakat qilgan¹⁵. Britaniyalik muallif ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli misolida sobiq sovet hokimiyatining totalitar siyosatining barcha fojialarini, oqibatlarini juda ayanchli qo‘rinishda yoritib bergan. Xususan, u yopilayotgan o‘nlab sanoat korxonalarini, ishi va tirikchiligini yo‘qotgan minglab odamlar, vayron bo‘lgan shaharlar, odamlar tashlab ketgan, qum bilan qoplanganligi haqida ma’lumotlar keltirgan.

O‘zbekiston Respublikasining mustaqillik yillarida Qoraqalpog‘istondagi iqtisodiy o‘zgarishlar haqida A.Zamarayeva ham to‘xtalib o‘tgan¹⁶. Muallif Qoraqalpog‘iston Respublikasi iqtisodiyoti tarkibidagi o‘zgarishni birinchi navbatda, mintaqa aholisining ko‘payishida ko‘rdi.

Qoraqalpog‘istonda baliq ovlash haqida taniqli g‘arb tadqiqotchisi J.Kritchlow (J.Critchlow) batafsil to‘xtalib o‘tgan. Kritchlow bu mamlakatdagi iqtisodiy siyosatning tarixiy jihatlarini batafsil bayon qilgan. U o‘z tadqiqot ishlarida baliqchilik, mo‘ynali dehqonchilik, dengiz va daryo transportlarini yo‘q qilishning fojiali holatlarini aytib beradi¹⁷.

Tadqiqotchi S.Peyrouz (S.Peyrouse) Qoraqalpog‘istonning iqtisodiy siyosatining tarixiy jihatlari bo‘yicha qazilmalarni qazib olish va ulardan samarali foydalanish muammosiga e’tibor qaratgan bo‘lib, mintaqaning istiqbolli konlarini

¹² Richardson David; Richardson Sue. Qaraqalpaqs of the Aral Delta. – Prestel Verlag, 2012.

¹³ Yılmaz S. Karakalpak Türkləri Ve Karakalpakistan Tarihi. – Ankara: Türk Tarih Kurumu Yayınları, 2008. – 534 p.

¹⁴ Gleason G. Uzbekistan: From Statehood to Nationhood // Nations and Politics in the Soviet Successor States. Eds. by I. Bremmer and R. Taras. – Cambridge: Cambridge University Press, 1993. – P. 351-53.

¹⁵ Craumer P. Rural and Agricultural Development in Uzbekistan. – London: RIIA, 1995.

¹⁶ Zamarajewa A. Kazakhstan – Uzbekistan: rywalizacja o przywództwo w Azji Centralnej. — Pultusk: Akademia Humanistyczna, 2007. – 167 s.

¹⁷ Critchlow J. Nationalism in Uzbekistan: A Soviet Republic’s Road to Sovereignty. – Boulder (CO): Westview Press, 1991. – P. 67.

ham sanab o'tgan. Shuningdek, "O'zbekgeofizika" aksiyadorlik jamiyatining "Ustyurt geofizika ekspeditsiyasi" filiali jamoasi faoliyatiga yuqori baho bergan¹⁸.

Bugungi kunda olimlar va amaliyotchilar Orol inqiroziga oid ko'plab nazariy va amaliy masalalarni ko'rib chiqadigan chet el adabiyotining¹⁹ katta ko'lamiga ega. Umuman olganda, muammo juda keng yoritilgan va havolada yuqorida qayd etilgan tadqiqotlarda Orol dengizining qurib qolishining asosiy va murakkab sabablari, uning halokatli oqibatlari, shuningdek, dengizni qutqarish loyihalari haqida batafsil to'xtalib o'tilgan.

Parlament va deputatlar faoliyati, Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga saylovlar hamda deputatlikka nomzodlarga qo'yiladigan talablar bilan bog'liq masalalar ham chet ellik tadqiqotchilar tomonidan ko'rib chiqilgan²⁰.

Qoraqalpog'istonning madaniy hayotiga oid xorijiy tarixshunoslik ham samarali o'rganilgan²¹. Mustaqillik yillari butun dunyoga qoraqalpoq xalqi milliy madaniyati, o'ziga xos san'ati, mumtoz adabiyoti, ma'naviy qadriyatlari, urf-odatlar va an'analari bilan butun tanilganligini ko'rsatdi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridayoq qoraqalpoq xalqining madaniyatiga katta e'tibor qaratilib kelinmoqda. Chunki o'tmishni tiklash jarayonida nafaqat tarixni, balki bu xalq madaniyatini ham o'rganish muhim ahamiyatga egadir.

Shunga qaramay, zamonaviy O'zbekiston va Qoraqalpog'istonda islom muammosi xorijiy mualliflarni o'rganishning dolzarb mavzularidan biri bo'lib kelmoqda. O'zbekistonda islom dinining boshqa dinlar bilan o'zaro munosabatlari,

¹⁸ Peyrouse S. The Economic Aspects of the Chinese-Central Asia Rapprochement. – Washington, DC: Central Asia-Caucasus Institute & Silk Road Studies, 2008. – P. 74.

¹⁹ Узбекистан: обретение нового облика: В 2-х т. Т. 1 / Под общ. ред. Е.М.Кожокина: Рос. ин-т стратегич. исслед. – М., 1998. – С. 182; Micklin P.P. Dessication of the Aral Sea: A water management disaster in the Soviet Union // Science. American Association for Advancement of Science. – Washington, 1988. – №241. – P. 1170-117; <http://www.ciesin.org/docs/006-238/006-238.html>; Daly J.C.K., Meppen K.H., Socor V., Star F.S. Anatomy of a Crisis. – Washington, DC: Central Asia-Caucasus Institute & Silk Road Studies Program, 2006. – P. 98; Steven Kyle and Phillipe Chabot. Agriculture in the Republic of Karakalpakstan and Khoerzm oblast of Uzbekistan // Department of Agricultural, Resource, and Managerial Economics Cornell University. – Ithaca, New York, 1997; Katzman K., Nichol J. Relations with Key Central Asian States. – Washington, DC: Congressional Research Service Report for Congress, 1998; Карпер д'Анкос Э. Евразийская империя. – Москва: РОССПЭН, 2007. – С. 67; Warikoo K. (ed.). Central Asia. Emerging New Order. – New Delhi: Har-Anand Publications, 1995. – 352 p.; Puri M.M. Central Asian Geopolitics: the Indian View // Central Asian Survey. 1997. Vol. 16. – N. 2. – P. 237-268; Baksh J. Russia, India and the Central Asian Republics: Geopolitical Convergence // Strategic Analysis. 1996. Vol. XIX. – N5; Sengupta A. Frontiers into Borders. The Transformation of Identities in Central Asia. – Kolkata: Hope India Publications, 2002. – 224 p.; Karakalpak et autres gens de L'Aral. Entre rivages et deserts // Cahiers d'Asie Centrale. IFEAC/EHESS. – Paris, 2002. – №10; Burles M. Chinese Policy toward Russia and Central Asian Republics. – Santa Monica (CA): RAND Corporation, 1999. – 84 p.; Pétric B. – M. Pouvoir, don et réseaux en Ouzbékistan post-soviétique. – Paris: Presses Universitaires de France, 2002. – P. 76. et.c.

²⁰ Fierman W. Political Development in Uzbekistan: Democratization? // Eds. by K.Dawisha and B.Parrott. Conflict, Cleavage, and Change in Central Asia and the Caucasus. – Cambridge: Cambridge University Press, 1997. – P. 368.

²¹ Richardson David; Richardson Sue. Qaraqalpaqs of the Aral Delta. – Prestel Verlag, 2012; Мамедов Н. Каракалпакская литература. – Баку: Баку Славян университети, «Китаб алями» нашрият-полиграфия маркази, 2007. – 295 с.; Pander K. Zentralasien. Kunst-Reiseführer. – Köln: DuMont, 1998. – 384 s.; Karakalpak et autres gens de L'Aral. Entre rivages et deserts // Cahiers d'Asie Centrale. IFEAC/EHESS. – Paris, 2002. – №10; Massicard E., Trevisani T. The Uzbek Mahalla; between State and Society // Central Asia. Aspects of Transition. Ed. By T. Everett Heath. – London, New York: Routledge Curzon, 2003. – P. 205; Karrar H. The New Silk Road Diplomacy: Chinas Central Asian Foreign Policy since the Cold War. – Vancouver: UBC Press, 2010; Landau, J.M. and K.H. Barbara. Politics of Language in the exSoviet Muslim States: Azerbaijan, Uzbekistan, Kazakhstan, Kyrgyzstan, Turkmenistan and Tajikistan. – London: Hurst and Company. Schlyter B., 2001; Fierman W. Language Planning and National Bohr Uzbekistan: Politics and Foreign Policy. – London: RIIA, 1998. – P. 76. et.c.

turli diniy konfessiyalarning islomga ta'siri, xalqaro va mintaqaviy "kuch markazlari" ning O'zbekistondagi diniy vaziyatga ta'siri va shu kabi masalalarga alohida to'xtalib o'tilgan²².

R.Xenks (R.Hanks) o'z asarida Qoraqalpog'iston Respublikasi aholisi "Karakum ishan", "Ishan kala", "Sultan – Uveys", "Toxmax – ata", "Shbili – Sheyx", "Nazlimxan suliv", "Bagdat", "Aimbet ishan", "Karaoydin bes ishani" va boshqa muqaddas joylariga muntazam tashrif buyurishlari haqida ma'lumotlar keltirgan²³.

M.Zareskiy²⁴ Qoraqalpog'iston Respublikasining O'zbekistondagi siyosiy mavqeini o'z asarlarida ko'rib chiqqan. Muallif Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston tarkibidagi suveren respublika ekanligini talqin qiladi. Respublikaning o'z parlamenti borligi - Jo'qorg'i Kengesi, hukumat - Vazirlar Kengashi, sud va huquqni muhofaza qilish organlari mavjudligi haqida bayon qilgan. Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi, Konstitutsiyaviy, Oliy va oliy xo'jalik sudlarida Qoraqalpog'iston Respublikasining vakolatxonasi ta'minlanadi. Qoraqalpog'iston Respublikasining konstitutsiyaviy maqomi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 70-75 moddalarida belgilangan²⁵.

N.Shulepina o'zining «Несколько сюжетов на фоне маловодья» ("Kam suv fonida bir nechta syujetlar") nomli asarida Qoraqalpog'istonning umumiy qishloq xo'jaligiga oid ma'lumotlarni taqdim qilgan. Kam suv muammosiga to'xtalib, u shunday yozgan: "2000-yilda Qoraqalpog'istondagi ko'plab dalalar sug'orilmasdan qoldi, keyinchalik suv yetishmasligi sababli hosil nobud bo'ldi. Eng ko'p zarar ko'rgan janubiy Orolbo'yi - Mo'ynoq, Taxtako'pir, Qorao'zak, Bo'zatov, Shumanay hududlari hisoblanadi. Guruch respublikada ellikdan kam ming gektar maydonni egallagan va maydonlarning 80 foizini egallagan"²⁶.

Ozarbayjon olimi Nizomiy Mamedov kitob shaydolarini qoraqalpoq xalqining tarixi, etnogenezi, madaniyati va adabiyoti bilan tanishtiradi. O'zbekiston mustaqilligi va Qoraqalpog'iston suvereniteti davridagi madaniy o'zgarishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda²⁷.

Shunday qilib, mavzuning tarixshunosligini tahlil qilib, ilmiy qiziqishlar doirasini kengaytirishga imkon beradigan yetarlicha mustahkam tarixiy materiallar to'planganligini ta'kidlash mumkin. Biroq hozirgi kunga qadar xorijiy tadqiqotchilar materiallarida zamonaviy Qoraqalpog'iston tarixi yetarli darajada o'rganilmagan. Bundan tashqari, xorijiy mualliflarining ko'plab tadqiqotlari hali ilmiy muomalaga kiritilmagan va tahlil qilinmagan.

Ikkinchi paragrafda xorij nazariyasining Qoraqalpog'iston eng yangi tarixini o'rganishdagi roli va ahamiyati tahlil qilingan.

²² The Politics of Transition in Central Asia and the Caucasus. Enduring legacies and emerging challenges. Edited by Amanda E. Wooden and Christoph H. Stefes. – New York, Taylor & Francis e-Library, 2009.

²³ Hanks R. Islamis Factor in Nationalism and Nation-Building in Uzbekistan: Causative Agent or Inhibitor? // Nationalities Papers, 1994. Vol. 22. – N 2. – P. 67.

²⁴ Зарецкий А.М. Особенности правового статуса Жокаргы Кенеса – Парламента Каракалпакстана // Мир современной науки. 2014. – №2.

²⁵ O'sha manba. – С. 3-12.

²⁶ Шулепина Н. Несколько сюжетов на фоне маловодья. – Москва: РосПЭН., 2002. – С. 56.

²⁷ Мамедов Н. Каракалпакская литература. – Баку: Баку Славян университети, «Китаб алями» нашрият-полиграфия маркази, 2007. – 295 с.

Qoraqalpog‘istonning eng yangi tarixini xorijlik olimlar nazariyalarida tushuntirish hozirga qadar juda noaniq ifoda etilgan. Ammo turmush tarzi, urf-odatlar yevropaliklar yoki amerikaliklardan farq qiladigan qoraqalpoq xalqiga nisbatan bunday qarashlar katta qiziqish uyg‘otadi, chunki yuqorida ta’kidlaganidek, buning hozirgi kunda katta imkoniyati bor. Xorijiy mualliflarning ilmiy nazariyasini qiymati ham shunda hisoblanadi. Xorijiy nazariyalarni Vatan tarixshunosligida o‘rgangan t.f.n. O.G.Pugovkina va t.f.d. N.A.Mustafoevalar “o‘zbek tarixshunoslari uchun tarixiy adabiyot katta qiziqish uyg‘otadi, chunki SSSR parchalanganidan so‘ng u g‘arb tafakkurining rivojlanish dinamikasini Markaziy Osiyo davlatlari taraqqiyoti haqida kuzatish imkonini beradi. Zamonaviy tarixshunoslarning vazifasi - nashrlarning manbalarini o‘rganish, aniqlash, ularni tahlil qilish, g‘arb tadqiqotchilarining O‘rta Osiyo respublikalari rivojlanishidagi muvaffaqiyat va kamchiliklar to‘g‘risidagi xulosalarining ob‘ektivligini va ularning mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarni bog‘liqligini aniqlashdir, deb ta’kidlashgan”²⁸.

Xorijiy tarixshunoslik yutuqlariga e’tibor bermaslikning salbiy oqibatlari bugungi kunda ham bu sohadagi taraqqiyotga to‘sqinlik qilmoqda²⁹. Biroq endilikda jahon miqyosidagi ilmiy integratsiya tufayli qoraqalpoq olimlari xorijiy tarixnavislikning yozma ma’lumotlarini qiyosiy tahlil qilishlari mumkin.

Shunday qilib, dissertatsiyada batafsil o‘rganilgan xorijlik olimlarning “modernizatsiya”, “Jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligi” yoki “dunyo-tizim” nazariyasi, “Tranzit” yoki “Transitologiya” nazariyasi, D.Ishiyama nazariyalarini tahlil etgan holda ularni tadqiqotda qo‘llash hozirgi Qoraqalpog‘istonda sodir bo‘lgan tarixiy voqea va hodisalarni obyektiv jarayon sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi. Ular Markaziy Osiyo mintaqasida sodir bo‘lgan tarixiy zamonning o‘ziga xosligini chuqurroq anglash va his qilishga hissa qo‘shadi.

Dissertatsiyaning

“O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi suvereniteti: xorijiy tarixiy tahlil” deb nomlangan 2-bobida Qoraqalpog‘iston Respublikasi suverenitetining qo‘lga kiritilishi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasi va “Islom omili” haqida ma’lumotlar beriladi.

Birinchi paragrafda Qoraqalpog‘iston Respublikasi suverenitetining qo‘lga kiritilishi masalasi tahlil qilinadi.

Marta Brill Olcott - Xalqaro tinchlik jamg‘armasining katta ilmiy xodimi, Markaziy Osiyo va Kavkaz muammolari hamda sobiq sovet davlatlarida davlat qurilishi bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar muallifining ta’biri bilan aytganda 1991-yil SSSRning barcha sobiq respublikalari “mustaqillikka sakradi”³⁰.

1991-yili xalqaro siyosiy maydonda yangi davlat – O‘zbekiston, O‘zbekiston Respublikasi (O‘zR) paydo bo‘ldi. U Markaziy Osiyoning boshqa barcha davlatlar

²⁸ Вопросы новейшей истории Узбекистана в современной англо-американской научной литературе. Отв. ред.: д.и.н., проф. Д.А.Алимова. – Ташкент: Адабиёт учкунлари, 2015. – С. 5.

²⁹ Кошанов Б.А., Аметов Т.А., Генжемуратов Я.Б., Кошанова С.Б. Очерки зарубежной историографии новейшей истории Республики Каракалпакстан. Монография. – Нукус: Qaraqalpaqstan, 2016. – 96 с.

³⁰ Olcott M.B. Central Asia’s Catapult to Independence // Foreign Affairs. summer 1992. – P. 108-130.

bilan chegaradosh yagona respublika hisoblanadi³¹. Markaziy Osiyoda eng muhim demografik salohiyatga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi hali ham ko'pchilik tomonidan an'anaviy "paxta - qovun - ko'zni qamashtiruvchi quyosh ostidagi firuza minoralari" triadasi ko'rinishida tasvirlanadi³². Uning tarkibiga 1 ta subyekt - suveren Qoraqalpog'iston Respublikasi kiradi. Ta'kidlab o'tish zarurki, 1990-yili 20-iyun O'zbekistonning davlat suvereniteti to'g'risidagi deklaratsiya qabul qilindi. Deklaratsiyada Qoraqalpog'istonning suvereniteti respublika Konstitutsiyasining o'zi bilan ta'minlanishi aniq qilib belgilanib o'tilgan. O'zbekiston Qoraqalpog'iston manfaatlarini himoya qiladi³³.

Shunisi e'tiborga loyiqki, ba'zan Qoraqalpog'iston Respublikasining suverenitetini qo'lga kiritish masalalarini ko'rib chiqib, amerikalik mualliflar shunday yozganlar: "Qoraqalpog'iston Respublikasi murakkab davlat subyektini tavsiflovchi barcha xususiyatlarga ega. O'zbekiston bilan birlashib, unda tarqab ketmadi, balki u teng huquqli suveren davlat bilan ittifoq tuzdi. Bu ittifoq ixtiyoriy, majburiy emas"³⁴.

Qoraqalpog'iston suverenitetining shakllanishida uning rivojlanishining quyidagi ikkita eng muhim bosqichini ajratib ko'rsatish mumkin:

Birinchi bosqich, ya'ni 1989-1990 yillar, bir tomondan, ijtimoiy-iqtisodiy inqirozning chuqurlashishi; ikkinchi tomondan, siyosiy qarama-qarshiliklar, harakatlarning chalaqonligi, kasaba uyushmasi rahbariyatining qat'iyasizligi. Bu vaqtda, 1990-yili 14-dekabr kuni Nukusda Qoraqalpog'iston ASSR Oliy Kengashining IV sessiyasi bo'lib o'tdi va unda "Qoraqalpog'iston Respublikasining davlat suvereniteti to'g'risidagi deklaratsiya" qabul qilindi³⁵.

Ikkinchi bosqich – 1992-yili 2-dekabrda Qoraqalpog'iston Respublikasi Davlat bayrog'i qabul qilingan kundan boshlab, to 1993-yili Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi, gerbi va madhiyasi qonun bilan tasdiqlangunga qadar qamrab oladi. Ta'kidlash joizki, birinchi marta Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq 1993-yili hokimiyatlarning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi belgilab o'tildi. Oliy davlat vakillik organi - qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradigan Respublika Jo'qorg'i Kengesi, Vazirlar Kengashi davlat hokimiyatining oliy ijro etuvchi va boshqaruv organi hisoblanadi. Respublikada sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan va boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil ravishda faoliyat yuritadi deb belgilab o'tilgan.

Ikkinchi paragrafda Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasi va "Islom omili"ga oid masalalar tahlil qilingan.

³¹ Kangas R. Uzbekistan in the Twentieth Century. Political Development and the Evolution of Power. – New York: St. Martin's Press, 1995. – P. 304.

³² Узбекистан: обретение нового облика: В 2-х т. Т. I. / Под общ. ред. Е.М. Кожокина: Рос. ин-т стратегич. исслед. – М., 1998. – С. 5.

³³ Декларация о суверенитете // Каримов И.А. Узбекистан на пороге достижения независимости. – Ташкент: Узбекистан, 2011. – С. 194.

³⁴ Central Eurasia in Global Politics. Conflict, Security and Development. Edited by Mehdi Parvizi Amineh Henk Houweling. Second edition. BRILL LEIDEN BOSTON. 2005.

³⁵ Декларация о государственном суверенитете Советской Республики Каракалпакстан. / Советская Каракалпакия. – Нукус, 20 декабря 1990 года. – №242 (15262).

1992-yil 9-yanvarda Suveren Qoraqalpog‘iston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi (KKASSR) rasmiy nomi Qoraqalpog‘iston Respublikasi deb o‘zgartirildi³⁶. Endi Qoraqalpog‘iston O‘zbekiston Respublikasi tarkibiga kiruvchi suveren demokratik respublikaga aylandi. Davlatning “Qoraqalpog‘iston Respublikasi” va “Qoraqalpog‘iston” nomi ekvivalent nomlarga aylandi³⁷.

A.M.Zareskiy kitobxonlar e‘tiborini o‘z asarlarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi O‘zbekiston tarkibida alohida o‘rin tutayotganiga qaratdi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi O‘zbekiston tarkibidagi suveren respublikadir. Respublikada o‘z parlamenti – Jo‘qorg‘i Kengesi, hukumat – Vazirlar Kengashi, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyat ko‘rsatadi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi, Konstitutsiyaviy, Oliy va Oliy xo‘jalik sudlarida vakillik qiladi³⁸.

Shuningdek, A.M.Zareskiyning tadqiqotlarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasida respublika parlamenti modeli ko‘rsatilmaganligini ta’kidlaydi. Respublika parlamentining mutlaq vakolatlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasining 70-moddasida belgilangan, deb ta’kidlaydi. Mazkur moddaning mazmuniga ko‘ra, Jo‘qorg‘i Kengesining mutlaq vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- 1) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarini qabul qilish;
- 2) Qoraqalpog‘iston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish;
- 3) Respublikani iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish davlat dasturlarini qabul qilish;
- 4) Qoraqalpog‘iston hududidagi tuman va shahar sudlari sudyalarini lavozimga tayinlash va lavozimidan ozod etish;
- 5) Respublika prokurorini lavozimga tayinlash va lavozimidan ozod etish;
- 6) Respublikaning ma‘muriy-hududiy tuzilishi masalalarini qonun hujjatlari bilan tartibga solish;
- 7) respublika va mahalliy hokimiyat organlarining tizimi va vakolatlarini belgilash;
- 8) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshirish³⁹.

1990-yillar boshida Markaziy Osiyoda islom diniga e‘tiborni kuchayishi davrida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasining 29-moddasi muhim rol o‘ynadi. Maqola matnida shunday deyilgan edi: “Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har kim istalgan dinga e‘tiqod qilish yoki hech kimga e‘tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirish qabul qilinishi mumkin emas”⁴⁰.

³⁶ Қарақалпақстан тарийхы (1991-2015 жыллар). – Нөкис: Илим, 2018. – Б. 26.

³⁷ Конституция Республики Каракалпакстан. – Нукус: Каракалпакстан, 1993. – С. 3.

³⁸ Зарецкий А.М. Особенности правового статуса Жоқарғы Кенесі – Парламента Каракалпакстана // Мир современной науки. 2014. – №2. – С. 3-12.

³⁹ Freedom House Report on Uzbekistan 2003. – New York: Freedom House, 2003. – P. 45.

⁴⁰ Конституция Республики Каракалпакстан. – Нукус: Каракалпакстан, 1993. – С. 7.

Shu munosabat bilan, bizningcha, u yoki bu tarzda umuman O'rta Osiyo va xususan Qoraqalpog'istonda "islom omili"ning eng muhim belgilarini aniqlay olgan xorijlik olimlarning tadqiqotlarini tahlil qilish zarurdir.

